

---

## **“Fidoyi yoshlar yetakchisi” ko‘rik-tanlovining Farg‘ona viloyati bosqichida shahrimiz vakili g‘olib bo‘ldi**

Tanlovda shahar va tuman bosqichlaridan g‘olib bo‘lgan 19 nafar yoshlar yetakchisi 4 ta shart bo‘yicha bilim va iqtidorini sinovdan o‘tkazdi. Ma‘lumki, viloyatdagi 1 ming 62 ta mahalla fuqarolar yig‘inlarining barchasida yoshlar yetakchilari tizimli ishlarni amalga oshirmoqda.

Viloyat hokimi o‘rinbosari Jamshed Hatamov tanlovning ochilish marosimida yoshlar yetakchilari mahallalarda katta kuch ekanini ta‘kidlab, barcha ishtirokchilarga omad tiladi.

Tanlov yakuniga ko‘ra, Farg‘ona shahar “Gulzor” mahalla fuqarolar yig‘ini yoshlar yetakchisi Jahongir Isroilov birinchi o‘rinni qo‘lga kiritdi. Buvayda tumanidagi “Yangiqadam” mahalla fuqarolar yig‘ini yoshlar yetakchisi Bunyodjon Otaqulov ikkinchi, Qo‘qon shahar “Istiqlol” mahalla fuqarolar yig‘ini yoshlar yetakchisi Irodaxon Qayumova uchinchi o‘rinni egalladi.

G‘oliblar tashkilotchilarning diplom va sovg‘alari bilan taqdirlandilar.

2022-07-15 16:50:33